

**“UCHINCHI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI” mavzusidagi ilmiy-amaliy ikkinchi
Respublika tarmoqli onlayn konferensiyasi**

“UCHINCHI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI”

**“UCHINCHI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI” mavzusidagi ilmiy-
amaliy ikkinchi Respublika tarmoqli onlayn konferensiyasi**

**UCHINCHI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI: maqolalar to'plami
2021y. – 62 bet**

**Mas'ul muxarrir: “SCIENCE BOX” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori
I.Norov**



SCIENCE BOX



***Eslatma!!! To'plamga Respublika Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida
ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, doktorant, pedagoglar,
magistrant va talabalarning maqola va tezislari kiritilgan. Matnlarda foydalanilgan
misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar!!!***

Nukus-2021

TAHRIRIYAT
Bosh muharrir
<i>Kenjayev Farhod – Nukus davlat pedagogika instituti Masofadan o‘qitish kafedrası o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi</i>
Nashrga tayyorlovchi
<i>Ixtiyorbek Norov – "SCIENCE BOX" mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori</i>
<i>Islomboy Tojiboyev - "SCIENCE BOX" mas’uliyati cheklangan jamiyati menejeri</i>

современного английского языка // Автореф. дисс... канд. филол. наук.
Ленинград: 1974. – 20с.

2. Усманов Ф.М. Синтактика-семантическая сопоставления двусоставных безглагольных предложений (на материале английского и узбекского языков) / дисс.канд.филол.наук. Самарканд: 2012. – 149с.

3. Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении. (На материал сочетаний связочного глагола со словами категории состояния, прилагательными и предложно-именными группами) // Автореф. дисс... канд. филол. наук. ЛГПИ им. А.И.Герцена, Ленинград: 1978. – 24 с.

Бадий адабиётлар рўйхати ва қисқартмаларга изох

1. AQ – Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon: Roman. / „Asr oshgan asarlar“ turkumi // - T.: „Sharq“, 2016. – 288 b.
2. O.Ё. – Odil Yoqubov. “Ulug’bek xazinası”/tarixiy roman/ “Abadiy barhayot asarlar” turkumi /-T.: “Ilm – ziyo - zakovat”, 2019. – 368 b.
3. O’HN - O’tkir Hoshimov. „Nur borki, soya bor” /roman/ “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. – 256 b.
4. O’H– O’tkir Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar” /roman/ “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. –T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 256 b.
5. PQ – Pirmqul Qodirov. “Yulduzli tunlar”/roman/ “Abadiy barhayot asarlar” turkumi – T. : “Navro’z”, 2019. – 576 b.
6. CA – Саид Аҳмад. “Уфқ” /-T.: “Sano-standart” нашриёти, 2019 йил. – 632 б.
7. ChA – Чингиз Айтматов. Асрни қаритган кун: Рус тилидан Асил Рашидов таржимаси. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 432 б.
8. Sh – Шухрат. Жаннат қидирганлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 460 б.

NUTQNING IJTIMOIIY HOSLANISHI

Muratova Nafisa

Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi matbuot kotı, o’qıtuvchisi.

ANNOTATSIYA: har bir jamiyatning (indivıdning) muloqot doirasi, mavzusu va leksikasi o’ziga xos xususiyati bilan farqlanadi. Bundan tashqari, har bir nutqiy muloqot jamiyatining o’ziga xos argo va jargonlari bo’ladi. Muloqot jarayoni ishtirokchilari ulardan xabardor bo’lmasa, me’yoriy nutq amalga oshishi mumkin

emas. Sotsiolingvistikada jamiyat deganda nafaqat nutq jamiyati, balki so'zlovchi va tinglovchi mansub bo'lgan ijtimoiy madaniy hamda kasbiy tabaqa ham tushuniladi. Vaholanki bu tabaqalarda nutq ham ixtisoslashadi. Quyida muloqot jarayonida nutqning ijtimoiy xoslanishini tahlil qilamiz.

KALIT SO'ZLAR: nuqtning ijtimoiy xoslanishi, nutqning ixtisoslashishi, sotsiolingvistika, muloqot leksikasi, individ, nutqiy muloqot shakllari, muloqot turlari, sotsiolingvistik aspekt.

Jamiyat va til o'rtasidagi munosabatlar haqida sotsial tilshunoslikda ko'pdan-ko'p tadqiqotlar olib borilib, unda tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'siri keng yoritilganiga qaramasdan sotsiolingvistik aspektda jamiyat tushunchasi o'zining aniq talqiniga ega bo'lmagani bugungi kunda barchaga ayon bo'lib qolmoqda. Bunda jamiyat deganda muayyan nutq sharoitida nutq jarayoni ishtirokchilari, shu nutq ishtirokchilari mansub bo'lgan ijtimoiy madaniy tabaqa hamda nutq sharoiti tushuniladi. Biz buni quyida O.Yoqubovning “Osiy banda” romani asosida ko'rib o'tamiz.

- Och! – dedi buyruq ohangda. – O'tar dunyo, bittadan olaylik. Ota shunday deb, Sarkor to'ldirgan qadahlardan birini olib bir ko'tarishda bo'shatdi.
- Nega og'zingni ochib, endigina tug'ulgan buzoqday angrayib o'tiribsan? Ich! Ba'zi narsalarni oshkora gaplashib olishimiz kerak...
- Ha, nega ichmaysan? – dedi Ota ovozi xiyol titrab.
- Ich buni! Hali senga aytadigan gaplarim, ginalarim bor!..
- Nima qilay Otaxon? U yoqda shunday gaplar.
- Dayus! Ivan ilgorigi Ivan emas, juda o'zgarib qolibdi. [2;23]

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ota bilan Sarkor ushbu muloqat jarayonida o'ziga xos bir jamiyatni tashkil etadi. Shubhasizki, Ota va Sarkor tabiatan hamda mohiyatan xilma-xil bo'lib, ular o'rtasidagi so'zlashish odobi ham turli tumandir. Shuning uchun sotsiolingvistik aspektda nutqiy muloqat turlarini ajratish masalasi so'zlovchilarning mavqei, jinsi, muloqat shakllari: ko'chada, bozorda, teatrdan va shu kabi joylarda har bir jamiyat uchun nutq qoliblarini (shakllari) belgilashga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, yuqoridagi matnda Otaning egallab turgan mavqei Sarkornikidan butunlay farq qilgani uchun ular nutqidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kishi muayyan sharoitda muloqotga kirishar ekan, bu muloqot qaysi jamiyatda voqealanishini anglashi zarur. Zero ki har bir jamiyatning (individning) muloqot doirasi, mavzusu va leksikasi o'ziga xos xususiyati bilan farqlanadi. Bundan tashqari, har bir nutqiy muloqot jamiyatining o'ziga xos argo va jargonlari bo'ladi. Muloqot jarayoni ishtirokchilari ulardan xabardor bo'lmasa, me'yoriy nutq amalga oshishi mumkin emas. Sotsiolingvistikada jamiyat deganda nafaqat nutq jamiyati, balki

so'zlovchi va tinglovchi mansub bo'lgan ijtimoiy madaniy hamda kasbiy tabaqa ham tushuniladi. Vaholanki bu tabaqlarda nutq ham iqtisodlashadi.

- Kamina sening hamma ishlaringdan habardorman. Yaxshi ishlaringdan ham, qaltis ishlaringdan ham xabarim bor. Qadam olishing chakki emas. Bobong sendan xursand. Ammo uzoqni ko'zlab ish qiladigan rahbar bir nozik narsani yaxshi bilmog'i kerakki, buni bilmagan rahbar uzoqqa borolmaydi, bo'tam!

- Raxmat sizga, bobojon - dedi Boboxon.

- Qanaqa sirli gap ekan, aytavering.

- Chamasi bu sirni o'zing ham bilasan, ammo yana bir marta qulog'ingga quyib olsang yomon bo'lmaydi. Sen kattalarning tomog'i teshik bo'lishini bilasanmi? Bilsang bu teshikka bir narsa tashlab turasanmi?

- Buni bilmasam hozirgacha bu kursida o'tirarmidim, bobojon! Men ularning tomoqlari teshik ekanliginigina emas, balki mansabdorlarning mansabi kattalashgan sayin tomoqlaridagi teshiklar ham kattalashib boraverishini ham bilaman. Bu teshiklarga tegirmon toshini tashlasangiz ham ular xech narsa ko'rmaganday qult yutib, hazm qilib ketaverishlarini ham biladi nevarangiz, bobojon. - ...

- Barakalla, bolam, yaxshi niyat-yarti mol! Iloyo niyatingga yet, -dedi. - Ammo bir narsani bilib qo'y. Qora xalq, avom qancha berma to'ymaydi. Qancha bersang ham ko'rdim demay, yamlab ketaveradi. Sen bir ish qilginki, xalqning esida qolsin. Bu ham bo'lsa - obodonchilik. Pul topar bo'lsang, sabab - anov iprindi-siprindi idorang, qari kampirday bukchayib qolgan klub-plubing - hammasini anov tog'ni talqon qiladigan mashina nomi... nima edi - buldozering bilan bir kechada surib tashla! Shunda eski guzar yosh kelinchakday yashnab-yasharib ketadi! Dovrug'ing elga tarqaladi. Muhburlar, gazetachilarning keti uzulmay qoladi.

Yuqoridagi nutq parchalaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, bobo va nevara o'ziga xos ravishda gapiradi. Bobo hayotda ko'p narsani ko'rgan zamonning past-balandligini mukammal ravishda o'zlashtirgan, o'z nevarasiga amal pillapoyalaridan qanday ko'tarilish kerakligini anglatish maqsadida nimalarga amal qilish kerakligi to'g'risida maslahatlar beradi. Nevara ham yosh bo'lishiga qaramay o'zidan yuqori mansabdagilarga qanday muomala qilish kerakligini allaqachon o'zlashtirgan “zukko” rahbar ekanligini namoyon qiladi. Umuman ijtimoiy muhit nutqda murojat shakllarida o'zining aniq ta'sirini ko'rsatadi. Zero, ushbu asarda ham xalqimiz tamonidan asrlar maboynida qo'llanib kelingan “teshik tamoq”, “yaxshi niyat-yorti mol”, “tog'ni talqon qilmoq”, “gapi og'zida qolmoq”, xorijiy tildan kalka yordamida o'zlashgan “ish bo'ri emaski, o'rmonga qochib ketsa”, “juft bo'lsin”, “gap sotmoq”, “burnini toshga ishqalamoq”, “berdisini aytmoq”, “birov bilan topishmoq”, “tarki odat amri mahol”, “tesha tegmagan” kabilar muloqot jarayonida qo'llanganini kuzatish mumkin.

Soʻzlovchi va tinglovchining yoshiga koʻra farqlanishi ham alohida-alohida jamiyatlar sifatida qaraladi. Haqiqatan ham bolalar, kattalar, erkaklar va xotin-qizlar nutqida oʻziga xos tafovutlar mavjud.

Sarkor mehmonxonaga oʻtarkan, koʻzlari kulib turgan mittigina qizaloq qoʻlini u tamon choʻzib: – Bu mening buvam! – deb bidirladi. Shundan keyin “Yoʻq, mening buvam, mening!” deya hammasi birdan chuvillasha ketdi.

- Yoʻq , seniki emas, mening buvam,mening buvam!...
- Men safarda – Maskovda edim, - dedi Sarkor.
- Kechir meni. Gulyuz.
- Maskov ketishingizni bilmabmiz, bir ogʻiz aytmbabsiz. Qoʻrqdim, uxlamadim.
- Men picha dam olay, charchaganman. Ungacha sen oʻzingga qara, nima balo boshqa koʻylaging yoʻqmi?
- Kim uchun kiyinaman, kim uchun taranaman? – dedi Gulyuz va koʻziga yosh oldi.
- Boʻldi, xotin, tovba qildim deyapman-ku, tavba qildim. Xa deb gina qilaverma axir, azizim! [2;20]

Tabiiyki, erkaklar va ayollar nutqining ham farqlari mavjudir. Sotsiolingvistik jamiyat deganda faqat nutq jarayoni, uning ishtirokchilari tushuniladi, degan bir tamonlama xulosa chiqarmaslik lozim. Butun jamiyat va uning nutqqa taʼsiri, aksincha aloqa-aralashuv vositasining jamiyat taraqqiyoti va rivojiga taʼsiri ham sotsiolingvistikaning muhim obʼektlaridan biri hisoblandi. Jamiyatdagi koʻp tillilik, qardosh va qardosh boʻlmagan tillarning bir-birlariga taʼsiri, oʻzga tillardagi soʻzlarning muloqot jarayonida qoʻllanilishi til va jamiyat munosabatlari doirasida tahlil etilishi tabiiydir.

- Rahmat, malades, malades! – deb Sarkorning yelkasiga qoqdi va: –xoʻsh? buyogʻi plan qanaqa? – deb soʻradi. Sarkor javob berib ulgurmasdi, gapni Ivan ilib ketdi:
- Xamma narsa yest qilingan! Xohlasangiz dam olasiz, xohlasangiz toʻgʻri ovga chiqaveramiz [2;10]

Darhaqiqat, kishilar jamiyatda yashash jarayonida unda maʼlum bir andozalarga rioya qilgan holda ijtimoiy muhitga mos tarzda faoliyat koʻrsatadi. Maʼlum ijtimoiy vazifa bajaruvchi har bir shaxs nutqi kasb nuqtai nazardan maxsus til belgilariga ega boʻladi.

Muloqat jarayonida soʻzlovchilar orasidagi norma va majburiyatga koʻra har qanday shaxs rasmiy ohangdan foydalangani holda nutqda hokimlik va itoatkorlik elementlari buyruq hamda boʻysinish kabi nutqiy aktlarni yuzaga chiqaradi.

- Qani, ketdik, jiyan!
- Togʻajon! Bilasiz-ku, men ichmayman.
- Juda soz, - piching qildi Sarkor. – Menga koʻproq qoladigan boʻpti! Sarkor jiyan aroq ichmasligini bilar edi, ammo hozir yuz gramm bilan asabini bosmasa, kechasi

bilan mijja qoqmay chiqishini o'yladi-da, shishaning tagiga bir urib, og'zini ochdi-da, ikkala piyolani ham to'ldirdi.

- Tog'ajon, bilasiz-ku, men ichmayman.

- Ichmasang ichmaganing yaxshi, jiyan – dedi Sarkor. - Ammo bu bedavo kasalga muhtalo bo'lganimga qirq yildan oshdi. Endi undan qutulish amrimahol. Sarkor shunday deb bir piyola aroqni bir ko'tarishda bo'shatdi-da, og'ziga gazak ham solmasdan jiyaniga qaradi.

- Xo'sh, jiyan, bir gaping borga o'xshayapti! Gapir mum tishlamay.

- Yo'q, sizga aql o'rgatishga ojizman, tog'ajon, - dedi jiyan. – Faqat...

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlash lozimki har qanday taraqqiy qilgan tilda ijtimoiy vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi til elementlari mavjud bo'lib, so'zlashuvchilar ana shu til vositalaridan foydalanib, o'zlari bajarib turgan sotsial imkoniyatlarinutq orqali ifoda etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. “sotsiolingvistika”- Samarqand, 2010 yil
2. Yoqubov O. “Osiy banda” romandan boblar. Jahon adabiyoti jurnali, 9 son, 2006 yil.
3. Safarov Sh. “progma lingvistika” – “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2008 yil.